

DOI: 10.5281/zenodo.15695972

Link: <https://zenodo.org/records/15695972>

MOLIYAVIY INVESTISIYALAR, ULARNING TASNIFI

Maralova Mashxura Baxtiyor qizi

Namangan davlat texnika universiteti

5-MJ-23 guruh talabasi

xulugbek1984@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga ta'sir etuvchi moliyaviy investisiyalar tizimi o'rganib chiqilgan. Mamlakatimiz iqtisodiyotida investision faoliyatni rivojlanishini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish, hamda investisiya faoliyatida moliyaviy hisobni bozor munosabatlari talablari va mezonlari darajasida tashkil qilishni va takomillashtirishni uslubiy jihatdan asoslab berishni, korxonalarda amalga oshiriladigan uzoq muddatli investisiyalarning bugungi shart-sharoitlariga mos keladigan qoidalarini ishlab chiqish zaruratini talab etmoqda. Mamlakatimizda fond bozorini yanada rivojlantirishga katta e'tibor berilmoxda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki qonunchilik bazasi takomillashtirilib, qimmatli qog'ozlarga investisiyalarning kirib kelishi uchun shart-sharoitlar tahlil qilinib, xulosalar qilingan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy investisiya, aksiya, obligatsiya, depozit sertifikati, veksel, investision faoliyat, oddiy aksiyalar, qimmatli qog'ozlar, raqamli O'zbekiston.

Kirish

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish maqsadida 2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida kelgusi besh yilga mo'ljallangan iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yetti ustuvor yo'nalishidan kelib chiqib, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bugun iqtisodiyotning barcha sohalarini boshqarish, zamonaviy hisob tizimlarini joriy etish va rivojlantirish eng dolzarb masalalardan biridir.

Milliy iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida tashkiliy-iqtisodiy jihatdan bir-biridan farq qiluvchi turli mulkchilik shakllariga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subektlarning vujudga kelishi uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Turli mulkchilik ko'rinishidagi subektlarda buxgalteriya hisobini to'g'ri yo'lga qo'yish va nazorat qilishning samarali mexanizmini ishlab chiqish hozirgi davrning eng muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolani tayyorlashda qiyosiy, tahlil qilish va tanlama kuzatish, statistik hamda ko'p omilli ekonometrik tahlil usullari, modellashtirish jarayonlarda iqtisodiy-matematik, noaniq to'plam nazariyasi, prognozlash va boshqa usullar qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar

Hozirgi kunda iqtisodiyotning real sektori korxonalarni modernizatsiya qilish va innovasion texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga egadir. Jahon bozori talablariga mos ravishda mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash uchun chet el investisiyalarini joriy qilish va mahsulot ishlab chiqaruvchilarni ichki rag'batlantirish ham samarali foyda beradi. Bu esa respublikamiz iqtisodiyotini taraqqiy topgan davlatlar qatoriga qo'shilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investisiya siyosatining xomashyo resurslarini chuqur qayta ishslashni ta'minlaydigan, asoslangan yangi ishlab

chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan investisiya loyihalariga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo‘lmoqda.

Hozirgi global dunyoda shiddat bilan sodir bo‘layotgan jarayonlar, ko‘plab davlatlarda investisiya faolligining susayishi hamda o‘sish sur’atlarining pasayishi mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham o‘z ta’sirini o’tkazmasdan qolmaydi. Shu kabi muammolarning ijobjiy hal etilishi, xususan, iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida moddiy-texnik holatini yaxshilash, ularning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish va amalga oshirishga bevosita bog‘liqdir. Bu esa mamlakatimiz hisob tizimida buxgalteriya hisobi sub’yektlarida investisiyalarni hisobga olishning amaldagi tizimi sarflangan investisiyalarga xarajatlarni moliyalashtirishga jalg etilgan mablag‘larini aniq maqsadga yo‘naltirish, investisiyalarni moliyalashtirishda mablag‘lar taqchilligini bartaraf etish hamda sarflanishdagi manzillilagini o‘z ta’minlash imkonini bermaydi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining barcha sohalarida hozirgi kunda o‘zgarishlar, tarkibiy islohotlar olib borilmoqda. Bunday islohotlarning olib borilishi bevosita mamlakatdagi investision jarayoni hisoblanadi. Davlatning investision siyosati, uning ustivor yo‘nalishlari va mamlakatdagи korxonalar investision faolligiga bog‘liq. Respublikamizda xorijiy investisiyalarni kirib kelishiga keng yo‘l ochish, ularni jalg qilishni kuchaytirish borasida amaliy chora-tadbirlar qo‘llanilmoqda, investision faoliyatni tartibga solib turuvchi qonunlar qayta ko‘rib chiqilib va hayotga tadbiq qilinmoqda.

Mamlakatimizda fond bozorini yanada rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki qonunchilik bazasi takomillashtirilib, qimmatli qog‘ozlarga investisiyalarning kirib kelishi uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shu jumladan Prezidentimizning 2022 yil 28 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2023-2025 yillarga mo‘ljallangan investisiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Dastur doirasida hududlarni ijtimoy - iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga asosan 2023 yilda 2 milliard dollarlik 465 ta investisiya loyihasi amalga oshirilganligi va 928,7 trillion miqdordagi markazlashgan va markazlashmagan investisiyalar miqdoridagi investisiyalar o‘zlashtirishi ko‘zda tutilgan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida investision faoliyatni rivojlanishini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish, hamda investisiya faoliyatida moliyaviy hisobni bozor munosabatlari talablari va mezonlari darajasida tashkil qilishni va takomillashtirishni uslubiy jihatdan asoslab berishni, korxonalarda amalga oshiriladigan uzoq muddatli investisiyalarning bugungi shart-sharoitlariga mos keladigan qoidalarini ishlab chiqish zaruratini talab etmoqda.

Moliyaviy investisiya-bu biznes faoliyatidagi mablag‘larning korxona opreasion faoliyati doirasidan tashqarida daromad olish maqsadlarida joyashtirilishidir. Bu qimmatli qog‘ozlarni sotib olish, boshqa korxonalar kapitaliga ulush kiritish, iqtisodiy subektlarga qarz berish tarzida amalga oshiriladi.

Moliyaviy investisiyalar belgilangan muddatlariga asoslanib 2 turga: qisqa va uzoq muddatli investisiyalarga ajratiladi. Investisiyalarni qaysi guruhlarga mansubligi qimmatli qog‘ozlarni sotib olish maqsadiga bog‘liq. Masalan, hisobot yili davrida

undan foyda olish va qaytadan sotish maqsadida sotib olingan yoki qaytarish muddati bir yildan ko‘p muddatga belgilangan aksiya yoki obligatsiyalar qisqa muddatli qo‘yilmalar tarkibiga kiradi.

Moliyaviy investisiyalar sodir bo‘lganligini tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lib qarz berish bo‘yicha shartnomalar, olingan turli sertifikatlar, aksiyalar, obligatsiyalar, amalga oshirilgan qo‘yilmalar summasiga berilgan guvohnomalar hisoblanadi. Korxonada sotib olingan moliyaviy investisiyalarni huquqini tasdiqlovchi hujjatlari olinmagan moliyaviy investisiyalar mablag‘lari alohida hisobga olinadi. Qimmatli qog‘ozlar sotilganligini tasdiqlovchi hujjatlarga obligatsiyalar hamda berilgan qarzlarni qaytarilganini tasdiqlovchi oldi-sotdi dalolatnomasi, to‘lov topshiriqnomalari kiradi.

Moliyaviy investisiyalar odatda kapital bozori orqali amalga oshiriladi. Kapital bozorini rivojlantirish maqsadida O‘zbekistonda fond birjalari tashkil qilinganligini alohida e’tirof etish joiz. Normativ huquqiy bazaga asoslangan holda qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solinadi. Qimmatli qog‘ozlar bilan birjada savdo qilishga ruxsat etish uchun korxona ishlab chiqarish jarayonlari va boshqaruvining eng muhim sohalarini tahlil qilish zarurligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

Bunda tahlil quyidagi axborotlarni umumlashtirish va qayta ishlashga tayanadi: ustav kapitalining miqdori, bitta aksiyaga to‘g‘ri keladigan daromad, xavf - xatarni baholash, bozorning holati, ishlab chiqarish samaradorligi, to‘lov qobiliyati va pul mablag‘lari bilan ta’minlanganlik

Aksiya – amal qilish muddati belgilanmagan qimmatli qog‘oz bo‘lib, yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan ma’lum ulushni asioner jamiyatini nizom jamg‘armasiga kiritilishini, uning egasini mazkur jamiyatga egalik qilishda qatnashishini va dividend olish, shuningdek jamiyatni boshqarish huquqiga ega bo‘lishini tasdiqlaydi.

Aksiya egalariga berilgan huquqlar hajmiga qarab aksiyalar oddiy shuningdek imtiyozliga bo‘linadi. Oddiy aksiyalar aksiyador jamiyatini boshqarishda qatnashish, hisobot davri tugaganda aksiyadorlar yig‘ilishi tomonidan aniqlangan miqdorda dividend olish va jamiyat faoliyatining moliyaviy to‘g‘ri hisoblash huquqini beradi. Daromad olish ketma - ketligi bo‘yicha aksiyalar oddiy va imtiyozlilarga bo‘linadi.

Oddiy aksiyalarga korxonaning yillik faoliyati natijasi bo‘yicha dividend to‘lash mo‘ljallanadi. Ular boshqarishga ta’sir ko‘rsatish huquqi bo‘yicha farqlanadi: ovoz berish huquqiga ega bo‘lmagan va bir yoki bir nechta ovozga ega bo‘lgan aksiyalar. Imtiyozli aksiya ovoz berish huquqiga ega emas, lekin doimiy qat’iy belgilangan dividendlar bilan ta’milanadi va korxona tugatilganda birinchi navbatda qoplanadi. Qimmatli qog‘ozlar bozorida qo‘llanilish turi bo‘yicha nomli va taqdim etiluvchi aksiyalar farqlanadi.

Obligatsiya – bu uning egasi ma’lum miqdorda pul to‘laganini va unda belgilangan muddatda nominal qiymatini va aniq belgilangan foizini so‘ndirish bo‘yicha majburiyatlar ko‘rsatilgan qimmatli qog‘oz (agarda chiqarish shartlarida boshqa narsa ko‘zda tutilmagan bo‘lsa).

Shuni ta’kidlash lozimki, obligatsiya-bu emissiyaviy qimmatli qog‘oz bo‘lib, uning egasining emitentdan (yemitentdan) o‘zi belgilagan muddatda obligatsiyaning

nominal qiymatini yoki boshqa mol-mulk ekvivalentini olish huquqini tasdiqlaydi. MCHJda biznesning mashhur shakli sifatida ko‘proq investision jozibadorlikka ega deb ishoniladi. Biroq, korporativ obligatsiyalarni chiqarish huquqisiz, MCHJ shaklidagi yuridik shaxslar qo‘shimcha moliyalashtirish manbalarida jiddiy cheklangan edi.

Bugungi kunda korporativ obligatsiyalarni chiqarish shartlari soddallashtirildi: korporativ obligatsiyalar miqdori emitentning o‘z kapitali miqdoridan oshib ketishi mumkin-bu holda oshib ketgan summani garov bilan ta’minalash kerak; emitent uchun o‘tgan yil uchun (ilgari - oxirgi 3 yil uchun) rentabellik, to‘lov qobiliyati, moliyaviy barqarorlik va likvidlikning ijobiy ko‘rsatkichlariga ega bo‘lishi kifoya. Shunga ko‘ra, moliyaviy hisobotlar bo‘yicha auditorlik xulosasi endi obligatsiyalar chiqarilishidan oldingi oxirgi yil uchun talab qilinadi.

Xo‘jalik yurituvchi subektlar va davlat korxonalari tomonidan ishlab chiqarish va boshqa infratuzilma obektlarini yaratish yoki rekonstruksiya qilishni moliyalashtirish uchun mablag‘ jalb qilish uchun chiqarilgan obligatsiyalar (infratuzilma obligatsiyalari)ga nisbatan ham qo‘llaniladi. Bundan tashqari, infratuzilma obligatsiyalari bo‘yicha emitentning majburiyatlarini to‘liq qaytarilgunga qadar sug‘urta qilish talabi ham bekor qilindi. Davlat ulushi 50% va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik kompaniyalari infratuzilma obligatsiyalarini chiqarishni Moliya vazirligi bilan muvofiqlashtirishlari shart.

Obligatsiyani tasarruf etuvchi obligatsiya chiqargan aksiyador jamiyati yoki korxonaning, davlat yoki mahalliy hukumatning kreditoridir. Obligatsiyalar bo‘yicha foizlar ularning harakat muddati ichida berib borilishi mumkin yoki obligatsiyaning muddati tugaganidan keyin beriladi.

Depozit sertifikati – bu pul mablag‘lari omonatga qo‘yilganligi to‘g‘risida, omonatchiga belgilangan muddat tugaganidan keyin depozit summasi va unga tegishli foizlarni olish huquqini beruvchi kredit muassasasining guvohnomasidir.

Veksel-bu karzning bir turi bo‘lib u qat’iy belgilangan shaklda tuziladi. Masalan, uning tafsilotlarida to‘lov yuborilgan shaxsning ismini ko‘rsatish majburiydir. Veksellar muomalasining huquqiy asoslari bugungi kunda ancha eskirgan, chunki veksellarning o‘zi 2015 yildan beri hozirgi vaqtga qadar amalda qo‘llanilmagan. Shu munosabat bilan veksellar bilan operatsiyalarni amalga oshirish jarayonini tartibga soluvchi deyarli barcha hujjatlar o‘z kuchini yo‘qotdi.

Hozirgi vaqtida qarz hujjatlarining qonunchilik tartibga soluvchisi O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil 22 iyuldagagi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi O‘RQ-163-soni Qonuni hisoblanadi. U qimmatli qog‘ozlarning aksiyalar, obligatsiyalar, jamg‘arma (depozit) sertifikati, chek, depozitar tilxati, g‘aznachilik majburiyatları, ipoteka, veksel kabi turlarini o‘z ichiga oladi va 2022 yildan birja obligatsiyasi joriy etildi.

Texnologiyalarni joriy etish: Zamonaviy hisob tizimlari va moliyaviy dasturiy ta’motlarining joriy etilishi korxonalarga pul mablag‘larini samarali monitoring qilish imkonini beradi. Elektron hisob-kitob sistemalarining mavjudligi moliyaviy jarayonlarni tezlashtiradi.

Moliyaviy nazorat va audit: Korxonada pul mablag'larini bilan bog'liq operatsiyalarni nazorat qilish va audit o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Bu moliyaviy xato va firibgarlikka yo'l qo'ymaslik uchun kerak.

Qonunchilikka muvofiqlik: O'zbekistonidagi moliya va buxgalteriya sohasidagi qonunchilik normalariga rioya qilish zarur. Korxonalar ushbu normalarni o'z faoliyatida inobatga olishi shart.

Pul mablag'larini boshqarish strategiyalari: Korxonalar o'z pul mablag'larini samarali boshqarish uchun strategiyalarni ishlab chiqishi kerak, bu esa likvidlikni ta'minlash va xarajatlarni kamaytirish uchun muhimdir.

Raqobatdoshlikni oshirish: Pul mablag'larini samarali boshqarish korxonaning raqobatdoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi, chunki bu resurslarni optimal taqsimlash imkonini beradi.

Ushbu masalalar O'zbekiston korxonalari uchun muhim bo'lib, ularning iqtisodiy rivojlanishi, ustuvorligini ta'minlash hamda global bozorlarda raqobatdoshligini oshirish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar

Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 05.10.2020 yildagi PF-6079-sod Farmoni, 2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida kelgusi besh yilga mo'ljallangan iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yetti ustuvor yo'nalishidan kelib chiqib, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bugun iqtisodiyotning barcha sohalarini boshqarish, zamonaviy hisob tizimlarini joriy etish va rivojlantirish eng dolzarb masalalardan biridir.

Milliy iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida tashkiliy-iqtisodiy jihatdan bir-biridan farq qiluvchi turli mulkchilik shakllariga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subektlarning vujudga kelishi uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Turli mulkchilik ko'rinishidagi subektlarda buxgalteriya hisobini to'g'ri yo'lga qo'yish va nazorat qilishning samarali mexanizmini ishlab chiqish hozirgi davrning eng muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitda olingan ma'lumotlar yuqori sifatli va samarali bo'lishi kerak, axborotdan ichki va tashqi foydalanuvchilarining ehtiyojlarini qondiradi. Taqdim etilgan ma'lumotlar zarur, muhim va maqsadga muvofiq bo'lishi kerak. Bundan tashqari, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari kam sarflanadigan mehnat va qisqa vaqt ichida tuzib chiqilishiga shart-sharoit yaratish zarur.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida yuzaga kelgan inqirozli hodisalarga qaramay, Juhon hamjamiyatining axborot komponentini shakllantirish jarayoni allaqachon boshlangan va ba'zi sohalarda sezilarli natijalarga erishilmoqda. Kelajakda bu tendensiyalar yanada kuchayadi va XXI asrda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning sezilarli darajada tezlashishini hisobga olsak, yaqin o'n yilliklarda Juhon hamjamiyatiga qo'shilish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 05.10.2020 yildagi PF-6079-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/5030957>
2. Norbekov D. , Misirov K. , Tashmanov G‘. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O‘quv qo‘llanma. - T. : Iqtisod-moliya, 2018. - 194 b.
3. Xasanov B. , G‘aniyev Z. , Muxammedova D. Boshqaruv hisobi. O‘quv qoilanma. - T. : Iqtisod-moliya, 2018. - 279 b.
4. Umurzakov.D.X., Ubaydullayev T.A. “Zamonaviy biznes sharoitida pul mablag‘lari va moliyaviy investisiyalarni hisobga olishning dolzarb masalalari” / ilmiy monografiya/ “Fan ziyosi” nashriyoti, Toshkent-2025
5. Novak I. M. Some conceptual approaches to the development of a social state in Ukraine / I. M. Novak // Demography and Social Economy. – 2004. – № 1–2. – P. 67–73.
6. Uzbekistan ranking in the Global Innovation Index 2024. <https://www.wipo.int/gii-ranking/en/uzbekistan>
7. Сторонянская И. З. Структурная дифференциация экономического развития регионов И. З. Сторонянская, Г. В. Возняк // Научный вестник Ужгородский университет. – 2011. – Вып. Тридцат четвёртой – С. 11–16.
8. Abdulazizovich, K. U. B. (2023). Improvement Of Information About Accounts Receivable In Current Assets In The Balance Sheet Based On International Standards. Journal of Survey in Fisheries Sciences, 10, 2849-2859.
9. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirzayev, U. A., & Polechov, A. X. (2013). theory of Economic Analysis. Tashkent" economics-finance"—2013.
10. Abdulazizovich, X.U.B.(2024). Moliyaviy aktivlar tasnifini takomillashtirish. образование наука и инновационные идеи в мире, 41(2), 82-86.
11. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). Innovasion faoliyatning moliyaviy ta’mnotinini kuchaytirish zarurligi va omillari tahlili. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 5(03), 142-146.
12. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). Moliyaviy aktivlar hisobining uslubiy asoslarini takomillashtirish. образование наука и инновационные идеи в мире, 62(3), 146-152.
13. Tashmatov Sh., Xasanxonova N. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot dunyosi”, 2020.
14. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo’llash masalalari. Ilmiy monografiya. Toshkent–2023.
15. Abdulazizovich, K. U. (2023). positive aspects of the cash method in small enterprises under unusual circumstances. asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 Impact Factor: 8.071, 12(11), 38-47.